

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

Mo‘minova Iroda Xoliyor qizi
Do‘sanova Diyora Abdig‘ulom qizi
Maturazova Xursandoy Maturaz qizi
Jo‘raqulov Javohir Xayrullayevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining 2- kurs tarix yo‘nalishi 207-guruh talabalari

Annotatsiya: *ushbu maqolada turk va arab davriyligi to'g'risida haqida fikr – mulohaza yuritigan.*

Аннотация: *в данной статье рассматриваются турецкие и арабские периодические издания.*

Annotation: *this article discusses Turkish and Arabic periodicities.*

Kalit so‘zlar: *“Nasi”, Kichik oy, Grigoriy kalendari, Hijriy yil hisobi, Oy, Quyosh, "Devonu lutotut turk" asari.*

Ключевые слова: *«Наси», малый месяц, григорианский календарь, исчисление года по хиджре, Луна, Солнце, произведение «Девону лутоут турк».*

Key words: *"Nasi", Small month, Gregorian calendar, Hijri year calculation, Moon, Sun, "Devonu lutotut turk" work.*

Qadimgi turkiy yil hisobi - Turkiy xalqlarning eng qadimgi va ilk o‘rta asrlarda ko‘llagan taqvimlari, yil hisoblari haqida juda oz ma'lumotlar saqlanib qolgan. Bu xaqda ma'lumot beruvchi manbalar Abu Rayxon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" va Mahmud Qoshg‘ariyning "Devonu lutotut turk" asarlaridir. Abu Rayxon Beruniy o‘z asarining uch joyida turkiy xalqlar taqvimini eslatib o‘tadi. Asarning 103-saxifasida qator sharq xalqlari taqvimlari haqida gapirib turk va hazarlarni xam tilga oladi: "Hind, xitoy, tibet, turk, hazar, xabash va zangi kabi boshqa millatlarning oylariga kelsak, garchi ulardan ba'zisining nomlari bizga aniq ma'lum bo‘lsa xam, to ularning barchasini bilish vaqti kelguncha bayon etishdan to‘xtadik". Beruniy ikkinchi marta o‘z asarining 104-saxifasida quyidagilarni yozadi: "Bular (ya'niturkiy xalqlar taqvimi)ning miqdorlari, ma'nolari va kayfiyatlaridan voqif bo‘lmadim". Shundan keyin olim turkiy xalqlar taqvimidagi o‘n ikki oy nomini beradi: 1. Ulug‘ oy. 2. Kichik oy. 3. Birinchi oy. 4. Ikkinchi oy. 5. Uchinchi oy. 6. To‘rtinchi oy. 7. Beshinchi oy. 8. Oltinchi oy. 9. Yettinchi oy. 10. Sakkizinchi oy. 11. To‘qqizinchi oy. 12. O‘ninchi oy. Beruniy mazkur sahifada yana turk taqvimi haqida gapirib "Turk jadvali" degan sarlavha ostida o‘n ikki hayvon nomi bilan ataladigan o‘n ikki yillik muchal hisobining nomlarini ham keltiradi: 1. Sichqon. 2. Ud (sigir). 3. Bars. 4. Tovushqon (quyon). 5. Luy (baliq) 6. Yilon (ilon). 7. Yunt (ot). 8. Qo‘y. 9. Pichin (maymun). 10. Tovuq. 11. It. 12. To‘ng‘iz. Yuqoridagilardan ma'lum bo‘ladiki, turkiy xalqlarning asosiy taqvimi muchal hisobidan iborat bo‘lgan yilning o‘n

ikki oyi Beruniy keltirgan nomlar bilan atalgan. Biroq Beruniy turkiy xalqlarda qadim zamonlardan buyon biror voqea asos qilib olingan "Tarix boshi" deb atalgan, raqam bilan hisoblab kelinadigan yil hisobi to'g'risida ma'lumot bermaydi. Shu bilan birga yuqorida aytilgan o'n ikki oyning kunlar miqdori, oddiy va kabisa yili, yilning boshlanishi yangi kunning qachondan hisoblanishi qam aytilmaydi. Har holda qadimgi turkiy xalqlarda ham Yaqin va o'rta Sharqdagi boshqa taqvimlarda bo'lgani kabi yil boshi bahorgi tengkunlikdan boshlangan. Chunki qadimgi turkiy xalqlar qo'llagan muchal yilning birinchi kuni bahorgi tengkunlikdan hisoblanadi. XI-asrning buyuk tilshunos olimi Mahmud Qoshg'ariy "Devonu lug'otut turk" asarining birinchi jildida turkiy xalqlarning taqvimi haqida qisqacha to'xtab o'tadi. Mahmud Qoshg'ariy ham Abu Rayhon Beruniy kabi qadim zamonlardan beri davom etib kelayotgan tarix boshi (era) haqida qech narsa demaydi. Olim faqat Beruniy keltirgani kabi yilning o'n ikki oyini beradi. Mahmud Qoshg'ariy turkiy xalqlarda kunlarning nomi yo'qligini, arablar kelgandan keyingina kunlar hafta ichidagi kun nomlari bilan aytilishi odat tusiga kirganligini qayd etadi. Shundan so'ng tilshunos olim turkiy xalqlar azaldan muchal hisobidan foydalanib kelayotganliklarini yozadi. U muchal tarkibiga kirgan o'n ikki hayvon nomini sichqondan boshlab to'ng'izgacha sanab o'tadi. Ayrim olimlarning fikricha turkiy xalqlarda tarix boshi (era) bo'lgan va u turk xoqonligining 571-yilda o'rnatilishidan boshlanadi, deyдилar. Bu fikrni isbotlash uchun Urxun-Enasoy yozuvlarida bitilgan qabr toshlaridagi bitiklarga murojaat qilaylik. Jumladan Kultegin yodnomasi shunday tugallanadi. "Kultegin qo'y yilida o'n yettinchi kunida o'ldi. To'qqizinchi oyning yigirma yettisida azasini o'tkazdik. Binosini, naqshini, bitiktoshini Maymun yilida, yettinchi oyning yigirma yettisida butunlay tugatdik. Kul tegin qirq yetti yoshida vafot etdi". Yuqoridagi sanani Xitoy yilnomalari bilan qiyoslab hisoblanganda melodiy 731-yilning 27-fevrali kelib chiqadi. Urxun-Enasoy yozuvidagi boshqa yirik yodnomalarda ham xotimada kitobat tarixi yuqoridagi tartibda beriladi. Ya'ni oyning soni, uning kuni va muchaldagi hayvon nomi qayd etiladi. Azaldan davom etib kelayotgan tadrijiy yil hisobi-tarix boshi (era) bo'lganda, Abu Rayhon Beruniydek sinchkov olim albatta ko'rsatib o'tgan bo'lar edi.

Dunyo tarixi davomida turli taqvimlar ishlab chiqilgan va foydalanib kelingan. Biz ishlatadigan Grigoryan taqvimidan tashqari Musulmon dunyosida ishlatiladigan hijriy taqvim ham mashhur. Bu yil hisobi oy yoki quyoshga asoslangan qamariy va shamsiy taqvimlariga bo'linadi. Hijriy-qamariy yil hisobi - tarix (era) boshini Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hijratlaridan olingan va oy (qamar) taqvimiga asoslangan yil hisobidir. Bu yil hisobi ancha uzoq tarixga ega. Arabiston yarim orolida yashagan qadimgi xalqlar miloddan avvalgi ming yillikda oy taqvimini qo'llaganlar. Arablar islomdan ikki yuz yilcha oldin (milodiy V asr boshlarida) oy-quyosh taqvimidan foydalanishga o'tgan edilar. Oy-quyosh taqvimida 24 yillik davr (sikl) mavjud bo'lib, bu takrorlanib turar edi. 24 yilning 9 yili 13 oylik, 15 yili 12 oylik bo'lardi. Yilga ortiqcha bir oy (ya'ni 13-oy) qo'shishni va shu oyning o'zini "nasi" deb atalgan. "Nasi" oyi qamariy va shamsiy yil oralaridagi farqni yo'qotish maqsadida, bu farq bir 5 oyga to'lganda qamariy yilga qo'shimcha 13-oy sifatida

qo'shilgan. Bu taqvim bo'yicha, ya'ni dinimiz islomgacha arab oylari yilning muayyan vaqtida boshlangan. Avval vaqti-vaqti bilan qo'shib kelingan 13-oy "nasi" payg'ambarimiz tomonlaridan milodiy 631 yilda bekor qilinadi. Arablar endi faqat qamariy taqvimga, qamariy oylarga o'tadilar. Shundan keyin arab oylari avvalgi nomlarining lug'aviy ma'nosini yo'qotdi, bir yil 365 kun emas 354 kunga aylandi, yil boshi 1-muharram avvalgidek har yili muayyan vaqtda emas, oldingi yilga nisbatan 11 kun barvaqt keladigan bo'ldi. Nasi oyi taqiqlanib qamariy taqvimga o'tilganligi payg'ambarimiz tomonlaridan e'lon qilinganligi sababli bu taqvim «Muhammad (s.a.v.) taqvimi» deb ham deyiladi. Muqaddas dinimiz Islom kelgach, musulmonlar diniy va dunyoviy ishlarini olib borishlari uchun o'zlariga xos taqvim-tarix bo'lishiga zarurat tug'ildi. Bu muhim masala ikkinchi xalifa Hazrati Umar raziyallohu anhu (xalifalik yillari milodiy 634-644) davrlarida muhokama qilindi va hal etildi. Milodiy 631 yilda biz musulmonlar qamariy oylarga to'la o'tgan bo'lsak-da, xalifalikning dastlabki yillarida voqea-xodisalarning sodir bo'lgan vaqtini faqat oy nomi va shu oyning ma'lum kunini qayd etish bilan yoki o'sha davrdagi an'anga ko'ra yilni nomlash uchun o'sha yili sodir bo'lgan asosiy voqea bilan belgilanardi. Masalan, Payg'ambarimizning Zaynab onamizga uylangan yili va shunga o'xshash u zotni hayotida yuz bergan voqe'alar nomi bilan cheklanar edilar. Oyga qo'shib aytiladigan sana (yil) hisobi yo'q edi. Musulmonlar o'rtasida yozilgan xat-hujjatlarga sana qo'yish odati bo'lmagan. Bir kuni bir kishi xalifa Umar huzurlariga kelib sha'bon oyida to'lanishi kerak bo'lgan qarz haqidagi hujjatni ko'rsatadi. Shunda Hazrati Umar "bu hujjat qaysi sha'bonga tegishli? O'tgan yilgi sha'bongami yoki bu yilgi sha'bongami?" - deb so'raydilar. O'sha paytlarda Jazira viloyatining voliyi Abu Muso Ash'ariyga ikkita buyruq yozib beriladi. Bu buyruqlarning biri ikkinchisiga sira to'g'ri kelmas, boshqa-boshqa edi. Ularning qaysi biri oldin, qaysi biri keyin yozilganligini bilolmagan Abu Muso xalifa Hazrati Umardan (r.a) so'raydi. Chunki har ikki buyruqda ham sana yo'q edi. Nihoyat, xalifa Hazrati Umar (r.a) o'z atrofiga sahobai kiromlarni to'plab mashvarat o'tkazadilar. Sahobalarning barchasi bir ovozdan oy hisobi bilan ish yuritishni ma'qul deb topadilar. Chunki diniy ahkamlarni qamariy (hijriy) tarixdan boshqacha yurgizish mumkin emas edi. Zero, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom ham vafotlaridan bir oz oldin oy-quyosh taqvimidagi "nasi" oyini bekor qilib faqat oy hisobini qoldirgan edilar. Mashvaratda ishtirok etgan sahobalar o'sha vaqtgacha qo'llanib kelgan qamariy oy nomlarini ham saqlab qolishni lozim ko'rdilar. Bu oylar arab ahli o'rtasida juda mashhur edi. Sahobai kiromlarlar taqvim boshi – ya'ni hijriy sananing boshini qaysi vaqtdan, qaysi voqeadan boshlab hisoblashga oid turli fikrlarni o'rtaqa tashladilar. Sahobalar Rasullulloh (s.a.v.)ning tug'ilgan kunlaridan boshlashni ma'qullashsa, boshqalari esa vafot etgan sanalaridan boshlashni ma'qullashardi. Hazrati Umar (r.a.): "Rasullulloh vafotlaridan boshlasak, har yil boshlanishida ul janob vafotlarining qayg'usi yangilanib, yangi yilni bayram qilib emas, motamsarolik ila kutib olishga to'g'ri keladi", - deb bu fikrni ham rad etadilar. Oxiri hazrati Ali ibn Abu Tolib karramallohu vajhahu islom taqvimi bo'lmish hijriy sana payg'ambarimizning Makkadan Madinaga ko'chib o'tishlari - hijratlaridan

boshlashni taklif etdilar. Bu taklifni barcha sahobalar ma'qullashdi va qabul qilishdi. Hijrat sababli taqvim "Hijriy" deb nom oldi. Payg'ambarimiz (s.a.v) ning Makkadan Madinaga hijrat qilib yetib borgan vaqtlari - rabi'ul avval oyidan 11 kecha o'tganda - dushanba kuni voqe' bo'lgan edi. Bu milodiy hisob bilan 622 yilning 23 sentyabr kuniga muvofiq keladi. Xalifa hazrati Umar raziyallohu anhu huzurlarida dinimizning taqvim boshi va tarix boshini qabul qilishga bag'ishlangan mazkur mashvarat majlisi hijratdan 17 yil keyin - 17 yil muharram oyining 1-kuni (milodiy 638-yil 23 yanvar) bo'lgan edi. Hijrat esa yuqorida aytilganidek, rabi'ul avval oyining 11 kunida, ya'ni oy sanasining 3-oyida bo'lib o'tgan. Hazrati Usmon ibn Affon roziyallohu anhu o'sha paytdagi arablar an'anasiga ko'ra yilni muborak Muharram oyidan boshlashni taklif qiladi. Vaholanki, arablarda avvaldan yil boshi muharram oyining 1-kunidan hisoblangan. Shu sababli tarixiy voqealarni hisoblaganda chalkashlik sodir bo'lmasligi uchun hijrat voqe' bo'lgan 3-oydan oldingi 1- va 2- oylar (muharram, safar) ham hijrat yil hisobiga qo'shib olindi va muborak muharram oyi yil boshi bo'lib qoldi. Ya'ni, aniq qilib aytganda, hijriy hisobning 1-yilining 1-kuni muharram oyi bo'lib, bu sanani milodiyga aylantirganda 622 yilning 16 iyuliga to'g'ri keladi. Hijriy sana hisobi Yaqin va O'rta Sharqning ko'p davlatlari va boshqa ba'zi davlatlarda qo'llanadi. Shamsiya 622 yilning bahorgi teng kunlik kuni — 21 martdan boshlab hisoblanadi; keyingi yil boshlari esa 20, 21 yoki 22 martga to'g'ri keladi. Davomiyligi Grigoriy kalendaridagi kabi 365 yoki 366 kundan iborat. Shamsiya bo'yicha oylarning nomlari hut, hamal, savr, javzo, saraton, asad, sumbula, mezon, aqrab, qavs, jaddi va dalv bo'lib, bu oylar doimo yilning ma'lum bir vaqtlarida keladi. O'rta Osiyoda yangi uslub keng ommaviylashgunga qadar qamariya hisobi ham, shamsiya hisobi ham ishlatilib kelingan; Shamsiya hisobi bo'yicha yilning dastlabki kunlarida Navro'z bayrami o'tkazilgan. Hijriy yil hisobining sanalarini yangi uslub (Grigoriy kalendariga) aylantirishda maxsus formulalar va jadvallar qo'llanadi. Masalan: Grigoriy kalendarining 1980 yili qamariyaning 1399/1400 yillariga va Shamsiyaning 1359/1360 yillariga to'g'ri keladi. Lekin bu har doim o'zini oqlay olmagan.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - T.: Sharq. 1998.
2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. - T.: «Ma'naviyat», 2008.
3. Абалакин В. К. Основы эфемеридной астрономии. - М.: «Наука». 1979.
4. Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. Tarjimonlar A. Rasulov.
G'. Jalolov, Yu. Hakimjonov. - T.: «Fan». 1965
5. Beruniy - o'rta asrning buyuk olimi (maqolalar to'plami). - T.: 1950.
6. Abu Rayhon Beruniy. Qonuni Mas'udiy. I qism. 1-5-maqolalar.
A. Rasulov tarjimasini. - T.: «Fan». 1973.
7. Abu Rayhon Beruniy. Qonuni Mas'udiy. II qism. 6-11-maqolalar.
A. Rasulov tarjimasini. - T.: «Fan». 1976.



8. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. I—II kitob. - T.: Movarounnahr. 2003.
9. Ahmedov A. Ahmad Al-Farg'oniy. - T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 1998.
10. Берунии А. Памятники минувших поколений. - Т.: «Фан».1957.